

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING
QARORI**

**O‘ZBEKISTON IQTIDORLI YOSHLARINI TAQDIRLASH VA MODDIY
RAG‘BATLANTIRISH TO‘G‘RISIDA**

Oldingi tahrirga qarang.

Qobiliyatli yoshlarni rag‘batlantirish tizimini yanada takomillashtirish, ularni faol yaratuvchilik faoliyatiga keng jalb etish, iqtidorli o‘quvchilarni, talabalar va tayanch doktorantlarni qo‘llab-quvvatlash hamda munosib taqdirlash, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlar yili” davlat dasturi to‘g‘risida” 2008-yil 29-fevraldagi PQ-805-son qarorida qo‘yilgan vazifalarni amalga oshirish maqsadida, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston o‘quvchi yoshlarini rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 1993-yil 5-fevraldagi PF-555-son Farmoniga muvofiq Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

(muqaddima O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 8-noyabrdagi 898-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 09.11.2017-y., 09/17/898/0234-son)

Oldingi tahrirga qarang.

1. Quyidagilar:

Tayanch doktoranturada tahsil olayotgan doktorantlar uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining davlat stipendiyalari va ularni tayinlash tartibi to‘g‘risidagi nizam 1-ilovaga muvofiq;

Magistratura bosqichi talabalari uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining davlat stipendiyalari va ularni tayinlash tartibi to‘g‘risidagi nizam 2-ilovaga muvofiq;

Bakalavriyat bosqichi talabalari uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va nomli davlat stipendiyalari hamda ularni tayinlash tartibi to‘g‘risidagi nizam 3-ilovaga muvofiq;

Respublika olimpiadalari, tanlovlari va sport musobaqalarini o‘tkazish to‘g‘risidagi nizam 4-ilovaga muvofiq;

Xalqaro va respublika olimpiadalari, tanlovlari, musobaqalari g‘oliblari bo‘lgan akademik litseylar, professional ta‘lim muassasalari va umumta‘lim maktablari o‘quvchilarini taqdirlash tartibi to‘g‘risidagi nizam 5-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

(1-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 4-noyabrdagi 674-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 04.11.2021-y., 09/21/674/1029-son)

Oldingi tahrirga qarang.

2. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi har yili O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti loyahasini tuzishda tasdiqlangan nizomlarga muvofiq iqtidorli yoshlarni taqdirlash va moddiy rag‘batlantirish uchun zarur budjetdan ajratiladigan mablag‘larni nazarda tutsin.

(2-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 26-apreldagi 122-sonli qarori tahririda — O‘R QHT, 2016-y., 17-son, 176-modda)

3. O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi, O‘zbekiston Milliy axborot agentligi, O‘zbekiston matbuot va axborot agentligi ommaviy axborot vositalarida iqtidorli yoshlarning o‘z ma‘naviy, kasbiy va intellektual salohiyatini ro‘yobga chiqarishdagi yutuqlari keng yoritilishini ta‘minlasinlar.

4. O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining 6-ilovaga muvofiq ayrim qarorlari o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

5. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o‘rinbosari R.S. Qosimov zimmasiga yuklansin.

O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent sh.,
2008-yil 13-oktabr,
226-son

Oldingi tahrirga qarang.

Tayanch doktoranturada tahsil olayotgan doktorantlar uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining davlat stipendiyalari va ularni tayinlash tartibi to‘g‘risida

NIZOM

(1-ilovaning nomi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 4-noyabrdagi 674-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 04.11.2021-y., 09/21/674/1029-son)

Oldingi tahrirga qarang.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining davlat stipendiyalari davlat oliy ta‘lim muassasalari va ilmiy-tadqiqot institutlarining so‘nggi o‘quv yilida tayanch doktoranturada tahsil olayotgan doktorantlarga (keyingi o‘rinlarda — tayanch doktorantlar deb yuritiladi) — O‘zbekiston Respublikasi fuqarolariga O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi tomonidan o‘tkaziladigan tanlov asosida tanlab olish natijalariga ko‘ra tayinlanadi.

(1-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 4-noyabrdagi 674-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 04.11.2021-y., 09/21/674/1029-son)

Oldingi tahrirga qarang.

2. Tayanch doktorantlarga tayinlash uchun belgilangan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining davlat stipendiyalari kvotasi (o‘nta) Oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar ixtisosliklari ro‘yxatiga muvofiq har yili O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan tanlov yo‘nalishlari bo‘yicha (har bir tanlov yo‘nalishiga bittadan stipendiya hisobidan) taqsimlanadi.

(2-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 4-noyabrdagi 674-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 04.11.2021-y., 09/21/674/1029-son)

Oldingi tahrirga qarang.

3. Tayanch doktorantlarga O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining davlat stipendiyalarini tayinlash uchun quyidagi mezonlar belgilanadi:

(3-bandning birinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 8-noyabrdagi 898-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 09.11.2017-y., 09/17/898/0234-son)

yetakchi ilmiy nashrlarda (kamida ikkita) ilmiy maqolalar e‘lon qilingan bo‘lishi;

O‘zbekiston tarixini bilish;

xalqaro konferensiyalar bosma nashrlarida maqolalar e‘lon qilingan bo‘lishi;

Oldingi tahrirga qarang.

barcha malakaviy imtihonlarni “a’lo” bahoga topshirish;

(3-bandning beshinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 8-noyabrdagi 898-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 09.11.2017-y., 09/17/898/0234-son)

dissertatsiyaning tayyorlik darajasi (dissertatsiyaning tayyorlik darajasi kamida 70 foiz bo‘lishi va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining davlat stipendiyalarini tayinlash uchun nomzod ko‘rsatgan muassislarning tegishli xulosasi bilan tasdiqlanishi kerak);

Oldingi tahrirga qarang.

tillarni — davlat tilini va bitta xorijiy (Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlari davlat tillaridan tashqari) tilni bilish, bakalavriatdagi ta‘lim yo‘nalishi yoki magistraturadagi ixtisoslik (tayanch doktoranturada tadqiqot obyekti) xorijiy til hisoblangan alohida hollarda esa qo‘shimcha ravishda yana bitta xorijiy tilni bilish talab qilinadi.

(3-bandning yettinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 8-noyabrdagi 898-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 09.11.2017-y., 09/17/898/0234-son)

Tillarni, axborot texnologiyalarini, O‘zbekiston tarixini bilishga talablar darajasini O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining davlat stipendiyalariga talabgorlar ushbu fanlar bo'yicha bilim darajasini aniqlash uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazida maxsus test sinovidan o'tadilar. Markaz yakuniy vedomostlarni test sinovlari natijalari bilan birga O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligiga topshiradi.

Oldingi tahrirga qarang.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining davlat stipendiyalarini tayinlash uchun tayanch doktorantlar nomzodlarini ko'rsatadigan davlat oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari, yetakchi mutaxassislarni jalb etgan holda, talabgorlar ishlarining dolzarbligini, ularning shaxsiy hissasini, o'tkazilgan tadqiqotlarning muhimligini oldindan ekspertizadan o'tkazadilar, dissertatsiya tadqiqotlari mavzusi bo'yicha tayanch doktorantlar ilmiy axborotlarining ommaviy muhokamasini tashkil qiladilar, ularning umumiy ilmiy tayyorgarligini, dissertatsiyaning tayyorlik darajasini, talabgorlarning ma'naviy-axloqiy sifatlarini baholaydilar va har bir nomzod bo'yicha asoslangan xulosa qabul qiladilar.

(4-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 8-noyabrdagi 898-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 09.11.2017-y., 09/17/898/0234-son)

5. Ilmiy-tadqiqot ishlarining mufassal annotatsiyalari ikki nusxada, matnga tegishli ko'rgazmalar bilan birga dastlabki ko'rib chiqish uchun davlat oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasasi ilmiy kengashiga taqdim etiladi.

Ishga quyidagilar ilova qilinadi:

mazkur soha yetakchi mutaxassislarining fikr-mulohazalari;

ilmiy ishlar ro'yxati;

ilmiy maqolalarning bosma nusxasi, mualliflik guvohnomalarining nusxalari, ilmiy ish natijalaridan foydalanish haqidagi dalolatnomalar.

Ishning (annotatsiyaning) har bir nusxasi yuqorida sanab o'tilgan hujjatlar bilan birga muqovalangan yoki jildga joylangan bo'lishi kerak. Muqovada yoki jildda ishni taqdim qilgan muassasaning nomi, talabgorning ismi, familiyasi va otasining ismi, ishning nomi ko'rsatiladi.

Boshqa hujjatlar, qo'shimcha chizmalar, sxemalar, xaritalar, albomlar, suratlar va shu kabilar bir nusxada taqdim etiladi.

6. Ilmiy kengashlar yashirin ovoz berish orqali, oddiy ko'pchilik ovoz bilan qaror qabul qiladilar.

Ilmiy kengashlarning qarorlari vazirliklar va idoralar uchun O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligiga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining davlat stipendiyalarini tayinlash haqida tavsiyanomalar jo'natish uchun asos hisoblanadi.

7. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi vazirliklar va idoralarning O'zbekiston Respublikasi Prezidentining davlat stipendiyalarini tayinlash to'g'risidagi tavsiyalarini har yili bir marta — dekabr oyida ko'rib chiqadi va ular bo'yicha qaror qabul qiladi. Hujjatlar 1—31-oktabrda qabul qilinadi, axborot texnologiyalari, xorijiy tillar, O'zbekiston tarixi bo'yicha maxsus test sinovlari 1—30-noyabrda o'tkaziladi.

Oldingi tahrirga qarang.

8. Tayanch doktorantlarga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining davlat stipendiyalarini tayinlash O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi hay'ati qarori asosida amalga oshiriladi.

(8-bandning birinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 8-noyabrdagi 898-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 09.11.2017-y., 09/17/898/0234-son)

Stipendiyalarni tayinlashdan avval talabgorlarning maxsus va umumilmiy tayyorgarlik darajasi hamda ma'lumotlarining belgilangan mezonlarga muvofiqligi puxta ekspertizadan o'tkaziladi.

Shu maqsadda O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi yetakchi olimlar va mutaxassislardan iborat tarkibda maxsus tanlov komissiyasi tuzadi, uning zimmasiga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat stipendiyalariga talabgorlar o'rtasida saralash tanlovi o'tkazish yuklanadi.

Oldingi tahrirga qarang.

9. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining tanlov komissiyasi talabgorlarning yakuniy tanlovini yashirin ovoz berish yo‘li bilan o‘tkazadi va agar har bir ishga ovoz berishda qatnashgan komissiya a‘zolarining kamida uchdan ikki qismi ma’qullab ovoz bersa nomzod tayanch doktorantlarni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining davlat stipendiyalarini tayinlash uchun tavsiya qiladi.

(9-bandning birinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 8-noyabrdagi 898-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 09.11.2017-y., 09/17/898/0234-son)

Ovoz berishdan so‘ng talabgorlar soni belgilangan o‘rinlar kvotasidan ko‘p bo‘lgan taqdirda ustunlik eng ko‘p ovoz olgan talabgorlarga beriladi.

Tanlov komissiyasining qarori O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan tasdiqlangandan so‘ng kuchga kiradi.

Oldingi tahrirga qarang.

10. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining qarori davlat oliy ta’lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari uchun tayanch doktorantlarga O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining davlat stipendiyalarini tayinlash va to‘lash haqidagi buyruqlarni rasmiylashtirishda asos bo‘ladi.

Oldingi tahrirga qarang.

Stipendiyalar har yili tayanch doktorantning tayanch doktoranturaning oxirgi kursidagi o‘qish davri uchun, stipendiyaning ikki barobari miqdorida qat’iy muvofiq holda tayinlanadi.

(10-bandning ikkinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 17-avgustdagi 684-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 17.08.2019-y., 09/19/684/3601-son)

Oldingi tahrirga qarang.

11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining davlat stipendiyalari sohibi bo‘lgan tayanch doktorantlarga “Prezident stipendiyasining sohibi” guvohnomalari beriladi. Guvohnomalar O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi hay’ati majlisida tantanali vaziyatda topshiriladi.

(11-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 8-noyabrdagi 898-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 09.11.2017-y., 09/17/898/0234-son)

Oldingi tahrirga qarang.

(12-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 8-noyabrdagi 898-sonli qaroriga asosan o‘z kuchini yo‘qotgan — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 09.11.2017-y., 09/17/898/0234-son)

Oldingi tahrirga qarang.

13. Shaxsiy rejalarni bajarmagan va ilmiy odob-axloqqa rioya qilmagan tayanch doktorantlar tasarrufida tayanch doktorant o‘qiyotgan oliy ta’lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari bo‘lgan vazirliklar va idoralarning taqdimiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi hay’ati qarori bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining davlat stipendiyalaridan mahrum qilinishi mumkin.

(13-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 8-noyabrdagi 898-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 09.11.2017-y., 09/17/898/0234-son)

Oldingi tahrirga qarang.

14. Bahsli masalalar, ariza va shikoyatlar qonunchilikda belgilangan tartibda ko‘rib chiqiladi.

(14-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 4-apreldagi 153-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 05.04.2022-y., 09/22/153/0266-son)

Oldingi tahrirga qarang.

Magistratura bosqichi talabalari uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining davlat stipendiyalari va ularni tayinlash tartibi to‘g‘risida

NIZOM

(2-ilovaning nomi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 4-noyabrdagi 674-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 04.11.2021-y., 09/21/674/1029-son)

Oldingi tahrirga qarang.

1. Magistratura bosqichi talabalari uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining davlat stipendiyalari O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari bo‘lgan davlat oliy ta‘lim muassasalari talabalariga O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi tomonidan o‘tkaziladigan tanlov natijalariga binoan tayinlanadi.

(1-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 4-noyabrdagi 674-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 04.11.2021-y., 09/21/674/1029-son)

Oldingi tahrirga qarang.

2. Talabalarga tayinlash uchun belgilangan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining davlat stipendiyasi kvotasi (yigirma ikkita) Oliy ta‘lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatoriga muvofiq har yili O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan tanlov yo‘nalishlari bo‘yicha (har bir tanlov yo‘nalishiga bittadan stipendiya hisobidan) taqsimlanadi.

Bunda, oliy ta‘lim muassasalari tomonidan nomzodlar har bir tanlov yo‘nalishi bo‘yicha bittadan tavsiya etilishi mumkin.

(2-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 4-noyabrdagi 674-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 04.11.2021-y., 09/21/674/1029-son)

3. Talabalarga O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining davlat stipendiyalarini tayinlash uchun quyidagi mezonlarni bajarish belgilanadi:

umumta‘lim tayyorgarligini ilmiy-tadqiqot (ijodiy ishlar) ishlari bilan uyg‘unlashtirish;
yo‘nalishlar bo‘yicha konferensiya (tanlov)larda qatnashish;
kamida ikkita e‘lon qilingan ishlar (asarlar)ning mavjudligi;

Oldingi tahrirga qarang.

tillarni — davlat tilini va bitta xorijiy chet tilni bilish (Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlari davlat tillaridan tashqari), magistraturadagi mutaxassislik xorijiy til bo‘lgan taqdirda esa qo‘shimcha ravishda yana bitta xorijiy tilni bilish talab qilinadi;

(3-bandning beshinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 4-noyabrdagi 674-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 04.11.2021-y., 09/21/674/1029-son)

O‘zbekiston tarixini bilish.

Tillarni, axborot texnologiyalarini, O‘zbekiston tarixini bilish bo‘yicha talab darajalarini O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi belgilaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining davlat stipendiyasiga talabgorlar ushbu fanlar bo‘yicha o‘z bilim darajasini aniqlash uchun O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazida (mintaqalar bo‘yicha) maxsus test sinovlari topshiradilar. Markaz yakuniy vedomostlarni test sinovlari natijalari bilan birga O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligiga taqdim etadi.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining davlat stipendiyasiga nomzodlar ko‘rsatish, talabgorlar nomzodlarining o‘qishdagi va ilmiy (ijodiy) faoliyatdagi muvaffaqiyatlari ommaviy ravishda muhokama qilingandan so‘ng, davlat oliy ta‘lim muassasalarining ilmiy kengashlari tomonidan amalga oshiriladi.

Talabgorlar dastlabki ko‘rib chiqish uchun ilmiy kengashga quyidagilarni topshiradilar:

sinov daftarchasidan ko‘chirma;
dekanat, kafedra tavsiyanomasi;
ilmiy (ijodiy) ish annotatsiyasi;

rahbarning fikr-mulohazalari;
ilmiy (ijodiy) ishga taqriz;
ilmiy ishlar ro'yxati va ularning bosma nusxalari.

Barcha hujjatlar ikki nusxada taqdim qilinadi. Hujjatlarning har bir to'plami jildga joylanadi, har bir jild muqovasida ishni taqdim qilgan muassasaning nomi, talabgorning familiyasi, ismi va otasining ismi, ishning nomi ko'rsatiladi.

5. Ilmiy kengashlar yashirin ovoz berish orqali, oddiy ko'pchilik ovoz bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat stipendiyalarini tayinlash uchun stipendiatlar nomzodlarini ko'rsatish to'g'risida qaror qabul qiladilar.

Ilmiy kengashlar qarorlari vazirliklar va muassasalarning O'zbekiston Respublikasi Prezidentining davlat stipendiyalarini tayinlash haqida O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligiga tavsiyanoma yuborishi uchun asos hisoblanadi.

6. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi stipendiyalar tayinlash haqidagi tavsiyanomalarni yiliga bir marta ko'rib chiqadi. Hujjatlarni qabul qilish muddati — 1—15-avgust, ko'rib chiqish muddati — 10—25-sentabr.

7. Davlat oliy ta'lim muassasalari talabalariga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining davlat stipendiyalarini tayinlash O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi hay'ati qarori bilan amalga oshiriladi.

Stipendiyalar tayinlanishidan avval talabgorlarning belgilangan mezonlarga muvofiq bilim va ilmiy (ijodiy) tayyorgarlik darajasi puxta ekspertizadan o'tkaziladi.

Shu maqsadda O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi:

zimmasiga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining davlat stipendiyalariga talabgorlar orasidan tanlab olish yuklanadigan maxsus tanlov komissiyasi tuzadi;

talabgorlarning ta'lim va ilmiy (ijodiy) tayyorgarligi darajasini baholash maqsadida ishlarni ko'rib chiqish uchun yo'nalishlar bo'yicha ekspertlar guruhlarini tuzadi;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi bilan birgalikda axborot texnologiyalari, O'zbekiston tarixi, xorijiy tillar bo'yicha imtihon komissiyalarini tashkil etadi, test topshiriqlarini ishlab chiqadi;

tanlov komissiyasi va ekspert guruhlarining ish tartibini belgilaydi;

tanlov komissiyasi majlislarini o'tkazish muddatlarini belgilaydi.

8. Tanlov komissiyasi talabgorlarning yakuniy tanlovini yashirin ovoz berish yo'li bilan o'tkazadi hamda talabgor va uning ishi uchun ovoz berishda ishtirok etgan komissiya a'zolarining kamida uchdan ikki qismi ovoz berganda talabalar nomzodini O'zbekiston Respublikasi Prezidentining davlat stipendiyalarini tayinlash uchun tavsiya qiladi.

Agar ovoz berishdan so'ng talabgorlar soni belgilangan kvotadan ko'p bo'lsa, ustunlik eng ko'p ovoz olgan talabgorlarga beriladi.

Tanlov komissiyasining qarori O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi hay'ati tasdiqlagandan so'ng kuchga kiradi.

Oldingi tahrirga qarang.

(8-bandning to'rtinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 4-noyabrdagi 674-sonli qaroriga asosan chiqarilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 04.11.2021-y., 09/21/674/1029-son)

9. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi hay'atining qarori davlat oliy ta'lim muassasalarining talabalarga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining davlat stipendiyalarini tayinlash va to'lash haqida buyruq tayyorlashi uchun asos bo'ladi.

10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining davlat stipendiyalari talabalarga har yili, bir o'quv yili uchun, 1-sentabrdan boshlab, belgilangan miqdorlarga qat'iy rioya qilingan holda tayinlanadi.

11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining davlat stipendiyalariga sazovor bo'lgan talabalarga "Prezident stipendiyasining sohibi" guvohnomasi O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi hay'ati majlisida tantanali ravishda topshiriladi.

Oldingi tahrirga qarang.

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining davlat stipendiyalari sohiblari bo‘lgan magistratura bosqichi talabalari oliy ta‘lim muassasasini bitirgach, ikki yil davomida tayanch doktoranturaga kirish imtihonlarisiz O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag‘lari hisobiga qabul qilinadi.

(12-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 4-noyabrdagi 674-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 04.11.2021-y., 09/21/674/1029-son)

Oldingi tahrirga qarang.

(13-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 4-noyabrdagi 674-sonli qaroriga asosan o‘z kuchini yo‘qotgan — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 04.11.2021-y., 09/21/674/1029-son)

14. Kundalik darslarni o‘zlashtirmaydigan, o‘quv intizomini va ilmiy odob-axloqni buzgan talabalarni o‘quv yili mobaynida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining davlat stipendiyalaridan mahrum qilish tasarrufida talaba o‘qiyotgan oliy ta‘lim muassasalari bo‘lgan vazirliklar va idoralarning taqdimiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi hay‘ati qarori bilan amalga oshirilishi mumkin.

Oldingi tahrirga qarang.

15. Talabalarning O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining davlat stipendiyalarini tayinlash bo‘yicha ariza va shikoyatlari qonunchilikda belgilangan tartibda ko‘rib chiqiladi.

(15-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 4-apreldagi 153-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 05.04.2022-y., 09/22/153/0266-son)

Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 13-oktabrdagi 226-son qaroriga
3-ILOVA

Oldingi tahrirga qarang.

Bakalavriat bosqichi talabalari uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va nomli davlat stipendiyalari hamda ularni tayinlash tartibi to‘g‘risida

NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom oliy ta‘lim muassasalarining bakalavriat ta‘lim yo‘nalishlari talabalari uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va nomli davlat stipendiyalarini tayinlash tartibini belgilaydi.

Ushbu Nizom Kamoliddin Behzod nomidagi davlat stipendiyasini tayinlash tartibiga nisbatan tatbiq etilmaydi.

2. Oliy ta‘lim muassasalari bakalavriat bosqichi talabalari uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining davlat stipendiyalari O‘zbekiston Respublikasidagi davlat, nodavlat va xorijiy oliy ta‘lim muassasalari, shu jumladan, qo‘shma ta‘lim dasturlarida butun o‘qishi davomida faqat a‘lo baholarga o‘qiyotgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi bo‘lgan oxirgi kurs talabalariga tayinlanadi va to‘lanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat stipendiyalari har bir oliy ta‘lim muassasasining bakalavriat bosqichidagi bir nafar bitiruvchi kurs talabasiga tayinlanadi va to‘lanadi.

Beruniy, Ibn Sino, Navoiy, Ulug‘bek, Imom al-Buxoriy va Islom Karimov nomli davlat stipendiyalari (keyingi o‘rinlarda — nomli davlat stipendiyalari) O‘zbekiston Respublikasidagi davlat va xorijiy oliy ta‘lim muassasalari, shu jumladan, qo‘shma ta‘lim dasturlarining oxirgi ikki kursida o‘qiyotgan talabalarga tayinlanadi va to‘lanadi.

To‘lepbergen Qaipbergenov va Ibroyim Yusupov nomli davlat stipendiyalari Qoraqalpog‘iston Respublikasidagi davlat, nodavlat va xorijiy oliy ta‘lim muassasalari, shu jumladan, qo‘shma ta‘lim dasturlarining oxirgi ikki kursida o‘qiyotgan talabalarga tayinlanadi va to‘lanadi. Bunda, ushbu nomli davlat stipendiyalari soni Qoraqalpog‘iston Respublikasidagi har bir oliy ta‘lim muassasasi uchun To‘lepbergen Qaipbergenov va Ibroyim Yusupov nomli davlat stipendiyalari bo‘yicha alohida bittadan belgilanadi.

3. Kelgusi o'quv yili uchun nomli davlat stipendiyalari soni joriy o'quv yili oxirida O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi taqdimnomasiga binoan Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Bunda, O'zbekiston Respublikasidagi davlat, nodavlat va xorijiy oliy ta'lim muassasalari hamda ularning filiallari bo'yicha davlat stipendiyalari soni O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatoriga muvofiq har yili tasdiqlanadigan tanlov yo'nalishlari va talabalar sonidan kelib chiqib taqsimlanadi.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va nomli davlat stipendiyalari tanlovlarida ishtirok etuvchi nomzodlarga quyidagi talablar belgilanadi:

a) nomli davlat stipendiyalari uchun:

a'lo o'qish va ilmiy (ijodiy) ishlarda ishtirok etish;

yo'nalishlar bo'yicha konferensiya (tanlov)larda qatnashish;

O'zbekiston tarixini bilish;

tillarni — davlat tilini va bitta xorijiy (Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari davlat tillaridan tashqari) tilni bilish, bakalavriatdagi ta'lim yo'nalishi xorijiy til hisoblangan alohida hollarda qo'shimcha ravishda yana bitta xorijiy tilni bilish. Bunda, talabgorlar ushbu tillar bo'yicha o'z bilimlari darajasini aniqlash uchun o'qish joyidagi til kafedralarida maxsus suhbatdan o'tadilar;

b) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat stipendiyasi uchun mazkur bandning "a" kichik bandida belgilangan talablarga qo'shimcha ravishda o'qiyotgan bakalavriat ta'lim yo'nalishiga mos mavzuda kamida ikkita e'lon qilingan ishlar (maqola, tezis yoki asarlar)ning mavjudligi talab etiladi.

2-bob. Tanlovlarni o'tkazish

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va nomli davlat stipendiyalarini tayinlash uchun nomzodlarni ko'rsatish oliy ta'lim muassasalari kengashlari tomonidan, talabgorlarning o'quv va ilmiy faoliyatini ommaviy muhokama qilish asosida amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va nomli davlat stipendiyalariga talabgorlar dastlabki ko'rib chiqish uchun oliy ta'lim muassasasi kengashiga quyidagilarni taqdim qiladilar:

sinov daftarchasidan ko'chirma;

dekanat va kafedraning tavsiyanomasi;

ilmiy (ijodiy) ish rahbarining tavsiyanomasi;

ilmiy ishlar ro'yxati va ularning bosma nusxalari;

tillar kafedrasi, tarix kafedrasining suhbat natijalari haqidagi ma'lumotnomalari.

Barcha hujjatlar jildga (papkaga) joylangan holda taqdim etiladi. Muqovada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti yoki nomli davlat stipendiyasi nomi, talabgorning familiyasi, ismi va otasining ismi, fakulteti, bakalavriat ta'lim yo'nalishi, kursi, guruhi ko'rsatiladi.

6. Oliy ta'lim muassasalari kengashlari talabgorlarni tanlovlarning navbatdagi bosqichiga tavsiya etish bo'yicha yashirin ovoz berish orqali oddiy ko'pchilik ovoz bilan qaror qabul qiladilar.

Ovoz berish jarayonida oliy ta'lim muassasasining professor-o'qituvchilari va talabalari ham ishtirok etishi mumkin.

Ovoz berish natijalariga ko'ra oliy ta'lim muassasasi kengashi tomonidan:

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat stipendiyasiga eng ko'p ovoz olgan uch nafardan (bunda nomzodlar turli tanlov yo'nalishlari bo'yicha aniqlanishiga urg'u beriladi);

nomli davlat stipendiyalariga ajratilgan har bir kvotaga eng ko'p ovoz olgan uch nafargacha nomzod tanlovning navbatdagi bosqichiga tavsiya etiladi.

7. Oliy ta'lim muassasasi kengashi qaroriga asosan tanlovlarning navbatdagi bosqichiga tavsiya etilgan nomzodlar to'g'risidagi ma'lumotlar va tegishli hujjatlar oliy ta'lim muassasasining mas'ul xodimi tomonidan Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining "stipendiya.edu.uz" elektron tizimiga har yili 1 — 15-avgust kunlari kiritiladi.

Bunda, nomzodlarning hujjatlarining asliga to'g'ri ekanligi hamda "stipendiya.edu.uz" elektron tizimiga o'z vaqtida va to'g'ri kiritilishi bo'yicha mas'uliyat oliy ta'lim muassasasi rektori (direktori) zimmasiga yuklatiladi.

8. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi stipendiyalar tayinlash haqidagi tavsiyanomalarni yiliga bir marta, har yili 10 — 30-sentabr kunlari ko‘rib chiqadi.

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining davlat stipendiyasiga talabgorlar chet tillari, axborot texnologiyalari, O‘zbekiston tarixi fanlari bo‘yicha bilim darajasini aniqlash uchun O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazida (hududlar bo‘yicha) maxsus test sinovlari topshiradilar. Davlat test markazi test sinovlari natijalari qaydnomalarini Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligiga taqdim etadi.

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va nomli davlat stipendiyalari sovrindorlari talabgorlarning ilmiy ishlari, erishgan yutuqlari hamda o‘tkazilgan test sinovlari natijalariga ko‘ra Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligida tanlov yo‘nalishlari bo‘yicha tashkil etilgan tanlov komissiyalari qaroriga asosan aniqlanadi.

11. Tanlov komissiyalarining qabul qilingan qarorlariga asosan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va nomli davlat stipendiyalari sovrindori bo‘lgan talabalar ro‘yxati O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirining buyrug‘i bilan tasdiqlanadi.

3-bob. Stipendiyalarni tayinlash va ularga beriladigan imtiyozlar

12. O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirining buyrug‘i oliy ta’lim muassasasi rektori (direktori, ijrochi direktori)ning talabalarga O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va nomli davlat stipendiyalarini tayinlash va to‘lash haqidagi buyruqlarni rasmiylashtirishi uchun asos hisoblanadi.

Stipendiyalar 1-sentabrdan boshlab, bir yil muddatga, belgilangan miqdorga qat’iy rioya qilgan holda tayinlanadi.

13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va nomli davlat stipendiyalari tanlovlarida g‘olib bo‘lgan talabalarga O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta’lim vaziri tomonidan tasdiqlangan quyidagi guvohnomalardan biri beriladi:

“O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining davlat stipendiyasi sohibi”;

“Beruniy nomli davlat stipendiyasining sohibi”;

“Ibn Sino nomli davlat stipendiyasining sohibi”;

“Navoiy nomli davlat stipendiyasining sohibi”;

“Ulug‘bek nomli davlat stipendiyasining sohibi”;

“Imom al-Buxoriy nomli davlat stipendiyasining sohibi”;

“Islom Karimov nomli davlat stipendiyasining sohibi”;

“To‘lepbergen Qaipbergenov nomli davlat stipendiyasining sohibi”;

“Ibroyim Yusupov nomli davlat stipendiyasining sohibi”.

Guvohnomalar talabalarning o‘qish joyida tantanali vaziyatda topshiriladi.

14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat stipendiyasi sohibi bo‘lgan talabalar bakalavriatni tugatgandan so‘ng ikki yil mobaynida, nomli davlat stipendiyalari sohibi bo‘lgan talabalar bakalavriatni tugatganidan so‘ng bir yil mobaynida tegishli mutaxassislik bo‘yicha magistraturaga kirish imtihonlarisiz qo‘shimcha davlat granti asosida o‘qishga qabul qilinadilar.

4-bob. Yakunlovchi qoidalar

15. Talabalarni kundalik darslarni o‘zlashtirmaganlik, o‘quv intizomini va odob-axloqni buzganlik uchun o‘quv yili mobaynida davlat stipendiyalaridan mahrum qilish oliy ta’lim muassasalari taqdimnomalariga binoan tegishli vazirliklar va idoralar buyruqlari bilan amalga oshirilishi mumkin.

16. Talabalarning O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va nomli davlat stipendiyalariga tayinlash bo‘yicha ariza va shikoyatlari qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda ko‘rib chiqiladi.

17. Mazkur Nizom talablarining buzilishida aybdor bo‘lgan shaxslar qonunchilikka muvofiq javob beradilar.

(3-ilovaning matni O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 4-noyabrdagi 674-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 04.11.2021-y., 09/21/674/1029-son)

Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 13-oktabrdagi 226-son qaroriga
4-ILOVA

Oldingi tahrirga qarang.

Respublika tanlovlari va sport musobaqalarini o'tkazish to'g'risida

(4-ilovaning nomi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 9-sentabrdagi 562-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 09.09.2021-y., 09/21/562/0857-son)

NIZOM

Oldingi tahrirga qarang.

1. Mazkur Nizom O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi, Madaniyat vazirligi, Jismoniy tarbiya va sport vazirligi hamda Badiiy akademiya qarorlariga ko'ra o'tkaziladigan respublika musobaqalarini: o'quvchilarning badiiy-ijodiy ixtisosliklar bo'yicha tanlovlarini, sportning shaxsiy va komanda turlari bo'yicha sport musobaqalarini tashkil etishning umumiy prinsiplarini belgilaydi.

(1-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 9-sentabrdagi 562-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 09.09.2021-y., 09/21/562/0857-son)

Oldingi tahrirga qarang.

2. Quyidagilar o'quvchi yoshlar o'rtasida tanlovlar, sport musobaqalari o'tkazishning asosiy maqsadlari hisoblanadi:

(2-bandning birinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 9-sentabrdagi 562-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 09.09.2021-y., 09/21/562/0857-son)

o'quvchi yoshlarning iste'dodi va ijodiy qobiliyatini namoyon qilish;

o'quvchilarda o'zlari tanlagan fanlar va ixtisosliklarni chuqur o'rganishga qiziqishni oshirish;

o'quvchilarning kelajakdagi kasblarni to'g'ri tanlashiga ko'maklashish;

o'quv-tarbiya jarayonini, o'qituvchilarning pedagogik mahoratini takomillashtirish, ular tomonidan qobiliyatli o'quvchilar bilan aniq maqsadga yo'naltirilgan yakka tartibdagi ishlarni o'tkazish.

Oldingi tahrirga qarang.

(3-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 9-sentabrdagi 562-sonli qaroriga asosan o'z kuchini yo'qotgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 09.09.2021-y., 09/21/562/0857-son)

4. Ijodkor yoshlarning respublika tanlovlari:

Oldingi tahrirga qarang.

bolalar musiqa va san'at maktablari;

(4-bandning ikkinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 21-avgustdagi 499-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 22.08.2020-y., 09/20/499/1199-son)

Oldingi tahrirga qarang.

professional ta'lim muassasalari, ixtisoslashtirilgan san'at va madaniyat maktablari hamda maktab-internatlari o'quvchilarining ikkita guruhi o'rtasida o'tkaziladi.

(4-bandning uchinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 21-avgustdagi 499-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 22.08.2020-y., 09/20/499/1199-son)

Oldingi tahrirga qarang.

O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi hamda Badiiy akademiya tanlov ixtisosliklari va shartlar ro'yxatini va tanlovlar shartlarini tasdiqlaydi.

(4-bandning to'rtinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 21-avgustdagi 499-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 22.08.2020-y., 09/20/499/1199-son)

Oldingi tahririga qarang.

Bolalar musiqa va san'at maktablari o'quvchilarining musiqa fanlari bo'yicha tanlovlari har uch yilda bir marta quyidagi bosqichlar bo'yicha o'tkaziladi:

(4-bandning beshinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 21-avgustdagi 499-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 22.08.2020-y., 09/20/499/1199-son)

1-bosqich — tuman, shuningdek hududi tumanlarga bo'linmagan shahar bo'yicha;

2-bosqich — viloyat bo'yicha, shu jumladan, Qoraqalpog'iston Respublikasida va Toshkent shahrida;

3-bosqich — respublika bo'yicha.

Tanlovlarning birinchi bosqichida o'z ta'lim muassasalaridagi hisobot konsertlarida eng katta e'tibor qozongan o'quvchilar ishtirok etadilar.

Ikkinchi bosqichda I, II, III o'rinlarni egallagan, uchinchi — yakunlovchi bosqichda esa tanlovga tavsiya etilgan har qaysi ixtisoslik bo'yicha faqat I o'rinni egallagan o'quvchilar ishtirok etadilar.

Oldingi tahririga qarang.

Professional ta'lim muassasalari, ixtisoslashtirilgan san'at va madaniyat maktablari hamda maktab-internatlari o'quvchilarining ijodiy tanlovlari musiqa, raqs, teatr, folklor yo'nalishlari ijrochilari o'rtasida har ikki yilda bir marta, uch turda o'tkaziladi.

(4-bandning o'n birinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-yanvardagi 20-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 12.01.2022-y., 09/22/20/0014-son)

Oldingi tahririga qarang.

Ushbu tanlovlarga saralab olish va yuborish hisobot konsertlari yakunlari bo'yicha amalga oshiriladi. Tanlov turlari O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi belgilagan tartibda o'tkaziladi. I, II, III o'rinlarni egallagan o'quvchilar faqat so'nggi tur yakunlari bo'yicha aniqlanadi.

(4-bandning o'n ikkinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11-maydagi 270-sonli qarori tahririda — O'R QHT, 2017-y., 19-son, 345-modda)

Oldingi tahririga qarang.

O'quvchilarning ijodiy tanlovlari bosqichlari va turlarini tashkil etish uchun mas'uliyat tegishli ravishda ta'lim muassasalarining rahbarlari zimmasiga, Badiiy akademiyaga, Madaniyat vazirligi hamda uning hududiy bo'linmalariga yuklanadi.

(4-bandning o'n uchinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 21-avgustdagi 499-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 22.08.2020-y., 09/20/499/1199-son)

5. Respublika sport musobaqalari har yili sportning har xil turlari bo'yicha o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari va umumta'lim maktablari komandalari o'rtasida, o'quv yili davomida, quyidagi bosqichlar bo'yicha o'tkaziladi:

1-bosqich — mintaqalar bo'yicha, bolalar sport maktablari, sport klubi yoki jamiyatlari tarkibida;

2-bosqich — respublika bo'yicha, o'sha komandalarda yoki mintaqqa terma jamoasi tarkibida.

Sport musobaqalarining har bir bosqichi eng kuchli sportchilarni saralash xususiyatlarini hisobga olgan holda o'tkaziladi.

Oldingi tahririga qarang.

Xalqaro musobaqalarning sport turlari, o'tkazish kalendari va musobaqa dasturi O'zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirligining qarori bilan belgilanadi.

(5-bandning beshinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 5-iyuldagi 508-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 09.07.2018-y., 09/18/508/1477-son)

Oldingi tahririga qarang.

Respublika musobaqalarining sport turlari, kalendari va dasturi O'zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirligining qarori bilan tartibga solinadi.

(5-bandning oltinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 5-iyuldagi 508-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 09.07.2018-y., 09/18/508/1477-son)

I, II, III o'rinlarni egallagan o'quvchilar sportning har bir turi bo'yicha aniqlanadi.

Oldingi tahrirga qarang.

Sport musobaqalari bosqichlarini tashkil etish uchun mas'uliyat tegishli ravishda akademik litseylar, professional ta'lim muassasalari va umumta'lim maktablari, O'zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirligining hududiy bo'linmalari, to'rtinchi final bosqichi bo'yicha esa — O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi, Jismoniy tarbiya va sport vazirligi rahbarlari zimmasiga yuklanadi.

(5-bandning sakkizinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 21-avgustdagi 499-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 22.08.2020-y., 09/20/499/1199-son)

Oldingi tahrirga qarang.

6. G'oliblarni taqdirlash Xalqaro va respublika tanlovlari va musobaqalari g'oliblari bo'lgan akademik litseylar, professional ta'lim muassasalari va umumta'lim maktablari o'quvchilarini taqdirlash tartibi to'g'risidagi nizomga muvofiq amalga oshiriladi.

(6-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 9-sentabrdagi 562-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 09.09.2021-y., 09/21/562/0857-son)

Oldingi tahrirga qarang.

7. Respublika musobaqalarini o'tkazish bo'yicha butun tadbirlar kompleksini bajarish uchun O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi, Xalq ta'limi vazirligi, Madaniyat vazirligi, Jismoniy tarbiya va sport vazirligi, Badiiy akademiya hamda ularning hududiy bo'linmalari o'z buyruqlari bilan tashkiliy qo'mitalar, jyurilar, hakamlar hay'atlari, apellatsiya komissiyalari va boshqa tuzilmalarni tashkil etadilar.

(7-bandning birinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 21-avgustdagi 499-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 22.08.2020-y., 09/20/499/1199-son)

Oldingi tahrirga qarang.

Tashkiliy qo'mitalar tanlovlar va musobaqalarga tayyorgarlik ko'rish hamda ularni o'tkazishda yagona ilmiy-uslubiy yondashuvni ta'minlaydilar, jyurilar, hakamlar hay'atlari, apellatsiya komissiyalari va boshqa tuzilmalar tarkibini shakllantiradilar va tasdiqlaydilar, testlar va sinov topshiriqlarini tayyorlashni tashkil etadilar, baholash mezonlarini va yakunlar chiqarish tartibini tasdiqlaydilar, qatnashchilarning musobaqaga kelishi bilan bog'liq barcha masalalarni hal qiladilar.

(7-bandning ikkinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 9-sentabrdagi 562-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 09.09.2021-y., 09/21/562/0857-son)

Oldingi tahrirga qarang.

Jyurilar, hakamlar hay'atlari g'oliblarni aniqlaydilar va tanlovlar va musobaqalar yakunlarini protokol qaror bilan rasmiylashtiradilar.

(7-bandning uchinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 9-sentabrdagi 562-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 09.09.2021-y., 09/21/562/0857-son)

Oldingi tahrirga qarang.

Apellatsiya komissiyalari tanlovlar va musobaqalar qatnashchilarining shikoyatlari va arizalarini ko'rib chiqadilar. Komissiyalarga, zarurat bo'lganda, jyurilar, hakamlar hay'atlari qarorlarini bekor qilish va ularga o'zgartirishlar kiritish huquqi beriladi.

(7-bandning to'rtinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 9-sentabrdagi 562-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 09.09.2021-y., 09/21/562/0857-son)

Oldingi tahrirga qarang.

8. Tanlovlar va musobaqalarning o'tkazish muddatlari va joylari tegishli hokimliklar bilan kelishiladi, ular qatnashchilarni turar joy, oziq-ovqat bilan ta'minlashda va boshqa tashkiliy masalalarni hal etishda yordam ko'rsatadilar.

(8-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 9-sentabrdagi 562-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 09.09.2021-y., 09/21/562/0857-son)

Oldingi tahrirga qarang.

9. Akademik litseylar, professional ta'lim muassasalari va umumta'lim maktablari o'quvchilari musobaqalarini mablag' bilan ta'minlash O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi, Madaniyat vazirligi, Jismoniy tarbiya va sport vazirligi hamda Badiiy akademiya tomonidan tasdiqlanadigan, ushbu maqsadlar uchun nazarda tutilgan mablag'lar doirasida tuzilgan smetalar bo'yicha amalga oshiriladi.

(9-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 21-avgustdagi 499-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 22.08.2020-y., 09/20/499/1199-son)

Oldingi tahrirga qarang.

10. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tanlovlar va musobaqalar topshiriqlarining murakkabligiga qo'yiladigan talablarning oliy ta'lim muassasalariga qabul qilinadigan abituriyentlar bilimlari darajasiga muvofiq bo'lishini ta'minlaydi.

(10-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 9-sentabrdagi 562-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 09.09.2021-y., 09/21/562/0857-son)

Oldingi tahrirga qarang.

11. Tanlov va musobaqaning har bir fani uchun xalqaro va respublika musobaqalari g'oliblari test sinovsiz hamda qo'shimcha imtihonsiz qabul qilinadigan, shuningdek, kasbiy (ijodiy) imtihonlarning fan majmualaridan biriga imtiyoz beriladigan soha ixtisosliklari ro'yxati har yili O'zbekiston Respublikasi ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish bo'yicha Davlat komissiyasi tomonidan belgilanadi.

(11-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 9-sentabrdagi 562-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 09.09.2021-y., 09/21/562/0857-son)

Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 13-oktabrdagi 226-son qaroriga
5-ILOVA

Oldingi tahrirga qarang.

Xalqaro va respublika tanlovlari, musobaqalari g'oliblari bo'lgan akademik litseylar, professional ta'lim muassasalari va umumta'lim maktablari o'quvchilarini taqdirlash tartibi to'g'risida

NIZOM

(5-ilovaning nomi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 9-sentabrdagi 562-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 09.09.2021-y., 09/21/562/0857-son)

Oldingi tahrirga qarang.

1. Ushbu Nizom badiiy-ijodiy ixtisosliklar bo'yicha professional ta'lim muassasalari, ixtisoslashtirilgan san'at va madaniyat maktablari hamda maktab-internatlari va umumta'lim maktablari o'quvchilarining tanlovlari, sport musobaqalari (Olimpiya va Paralimpiya o'yinlari dasturlariga kiritilgan sportning olimpiya va paralimpiya turlari bo'yicha faqat oliy ta'lim muassasalarining jismoniy tarbiya va sport sohasidagi ta'lim yo'nalishlariga turlari bo'yicha) g'oliblariga tatbiq etiladi hamda ta'lim muassasalariga imtiyozli kirish va pul mukofotlari olish tartibini belgilaydi.

(1-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-yanvardagi 20-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 12.01.2022-y., 09/22/20/0014-son)

Oldingi tahrirga qarang.

2. Respublika (1-o‘rin) va xalqaro tanlovlar va sport musobaqalarining (Olimpiya va Paralimpiya o‘yinlari dasturlariga kiritilgan sportning olimpiya va paralimpiya turlari bo‘yicha Olimpiya va Paralimpiya, Osiyo va Paraosiyo o‘yinlari, jahon va Osiyo chempionatlarida oxirgi to‘rt yilda hamda respublika chempionatlarida oxirgi bir yilda g‘olib va sovrindor (1 — 3 o‘rin)) individual turlarida g‘olib chiqqan akademik litseylar, professional ta‘lim muassasalari va umumta‘lim maktablarining bitiruvchilari oliy ta‘lim muassasasiga test sinovlarisiz va qo‘shimcha imtihonsiz qabul qilinadilar, musiqa, raqs, teatr, folklor, shuningdek tasviriy va amaliy san‘at hamda dizayn, yo‘nalishlaridagi tanlovlar bundan mustasno.

(2-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-yanvardagi 20-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 12.01.2022-y., 09/22/20/0014-son)

Oldingi tahrirga qarang.

2¹. Kattalar va yoshlar o‘rtasida Olimpiya va Paralimpiya o‘yinlari dasturlariga kiritilgan sportning olimpiya va paralimpiya turlari bo‘yicha Olimpiya va Paralimpiya, Osiyo va Paraosiyo o‘yinlari, jahon va Osiyo chempionatlarida oxirgi to‘rt yilda hamda respublika chempionatlarida oxirgi bir yilda g‘olib va sovrindor (1 — 3 o‘rin) bo‘lgan umumiy o‘rta ta‘lim maktablari, o‘rta maxsus professional ta‘lim muassasalarining bitiruvchilari oliy ta‘lim muassasalariga o‘qishga kirish uchun hujjatlar qabul qilish boshlanguniga qadar oliy ta‘lim muassasalarining jismoniy tarbiya va sport sohasidagi ta‘lim yo‘nalishlariga qo‘shimcha davlat granti asosida kunduzgi, sirtqi, kechki ta‘lim shakllariga imtihon sinovlarisiz qabul qilinadilar.

(2¹-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-yanvardagi 20-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 12.01.2022-y., 09/22/20/0014-son)

Oldingi tahrirga qarang.

Oldingi tahrirga qarang.

2². Musiqa, raqs, teatr, folklor, shuningdek tasviriy va amaliy san‘at hamda dizayn yo‘nalishlaridagi respublika (1-o‘rin) va xalqaro tanlovlarda (1 — 3-o‘rinlar) g‘olib chiqqan professional ta‘lim muassasalari, ixtisoslashtirilgan san‘at va madaniyat maktablari hamda maktab-internatlari va umumta‘lim maktablarining bitiruvchilariga oliy ta‘lim muassasalarining kasbiy (ijodiy) imtihonlarida soha bo‘yicha eng yuqori ball belgilangan fandan maksimal ball olish imtiyozini beriladi.

(2²-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-yanvardagi 20-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 12.01.2022-y., 09/22/20/0014-son)

Agar kasbiy (ijodiy) imtihonlarda eng yuqori ball bir nechta fanlardan belgilangan bo‘lsa, abituriyentga imtiyozli maksimal ball olish uchun fanlardan birini tanlash huquqi beriladi.

Agar ayrim ta‘lim yo‘nalishlarida 1 ta fandan kasbiy (ijodiy) imtihon o‘tkazish belgilangan bo‘lsa, abituriyentga mazkur fan bo‘yicha maksimal ball beriladi.

(2²-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 21-avgustdagi 499-sonli qaroriga asosan kiritilgan — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 22.08.2020-y., 09/20/499/1199-son)

Oldingi tahrirga qarang.

3. Respublika (1-o‘rin) va xalqaro tanlovlar va sport musobaqalarining (Olimpiya va Paralimpiya o‘yinlari dasturlariga kiritilgan sportning olimpiya va paralimpiya turlari bo‘yicha Olimpiya va Paralimpiya, Osiyo va Paraosiyo o‘yinlari, jahon va Osiyo chempionatlarida oxirgi to‘rt yilda hamda respublika chempionatlarida oxirgi bir yilda g‘olib va sovrindor (1 — 3 o‘rin) bo‘lgan) jamoa turlari g‘oliblari o‘z komandalari tarkibidan — akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari va umumta‘lim maktablari bitiruvchilaridan oliy ta‘lim muassasasiga test sinovlarisiz va qo‘shimcha imtihonsiz qabul qilish uchun uch nomzodni belgilaydilar.

(3-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-yanvardagi 20-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 12.01.2022-y., 09/22/20/0014-son)

4. Respublika (1-o‘rin) va xalqaro (1—5-o‘rinlar) shaxmat va shashka turnirlarida g‘olib chiqqan akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari va umumta‘lim maktablari bitiruvchilari

pedagogik kadrlar tayyorlaydigan oliy ta'lim muassasasiga test sinovlarisiz va qo'shimcha imtihonsiz qabul qilinadilar.

Oldingi tahrirga qarang.

(5-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 7-yanvardagi 4-sonli qaroriga asosan o'z kuchini yo'qotgan)

Oldingi tahrirga qarang.

(6-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 9-sentabrdagi 562-sonli qaroriga asosan o'z kuchini yo'qotgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 09.09.2021-y., 09/21/562/0857-son)

Oldingi tahrirga qarang.

7. Xalqaro va respublika tanlovlari va musobaqalari g'oliblarini oliy ta'lim muassasasiga imtiyozli qabul qilish ta'lim muassasasi ixtisosliklari bilan tanlovlar ixtisosliklari, sport turlarining soha bo'yicha mos kelishiga qat'iy rioya qilingan holda amalga oshiriladi.

(7-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 9-sentabrdagi 562-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 09.09.2021-y., 09/21/562/0857-son)

Oldingi tahrirga qarang.

8. Xalqaro va respublika tanlovlari va musobaqalari g'oliblarini test sinovlarisiz va qo'shimcha imtihonsiz, shuningdek, kasbiy (ijodiy) imtihonlarning fan majmualaridan biriga imtiyoz orqali oliy ta'lim muassasasiga qabul qilish uchun hujjatlarni rasmiylashtirish Vazirlar Mahkamasining "Oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirish uchun hujjatlarni qabul qilish bo'yicha davlat xizmatlarini ko'rsatishning ma'muriy reglamentini tasdiqlash to'g'risida" 2019-yil 7-iyundagi 468-son qarorida nazarda tutilgan imtiyozlarni berish uchun mas'ul vakolatli organlar ta'sis etadigan maxsus guvohnoma asosida amalga oshiriladi.

(8-bandning birinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 9-sentabrdagi 562-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 09.09.2021-y., 09/21/562/0857-son)

Maxsus guvohnomalar ana shunday imtiyozlarga ega bo'lgan g'oliblarga beriladi va bu guvohnomalar oliy ta'lim muassasasiga kirish uchun zarur hujjatlar bilan birga qabul komissiyasiga topshiriladi.

Oldingi tahrirga qarang.

9. Xalqaro olimpiadalar, tanlovlar va musobaqalarning g'oliblari O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligiga, Madaniyat vazirligiga, Jismoniy tarbiya va sport vazirligiga hamda Badiiy akademiyaga o'zlari erishgan natijalarni tasdiqlovchi diplomlarni (1 — 3-o'rinlar) yoki jyuri qarorini, sertifikatlarni (4-5-o'rinlar) maxsus guvohnomalar berilishi uchun asos sifatida taqdim etadilar.

(9-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 21-avgustdagi 499-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 22.08.2020-y., 09/20/499/1199-son)

Oldingi tahrirga qarang.

10. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi, Madaniyat vazirligi, Jismoniy tarbiya va sport vazirligi hamda Badiiy akademiya nazorat tartibida, g'oliblarga berilgan maxsus guvohnomalarning reyestri bilan bitiruvchilar ro'yxatini test sinovlari o'tkaziladigan kundan oldin O'zbekiston Respublikasi ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish bo'yicha davlat komissiyasiga taqdim etadilar.

(10-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 21-avgustdagi 499-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 22.08.2020-y., 09/20/499/1199-son)

Oldingi tahrirga qarang.

11. Xalqaro badiiy-ijodiy tanlovlar, Olimpiya o'yinlari, jahon va qit'a chempionatlarining g'oliblari o'zlarining ta'lim muassasasiga kirish bo'yicha imtiyozli huquqlaridan uch yil mobaynida, respublika tanlovlari va musobaqalari g'oliblari esa — ular o'tkazilgan kundan boshlab bir yil mobaynida foydalanishlari mumkin.

(11-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 9-sentabrdagi 562-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 09.09.2021-y., 09/21/562/0857-son)

Oldingi tahrirga qarang.

12. Xalqaro (1—5-o'rinlar) va respublika (1—3-o'rinlar) tanlovlari va musobaqalari g'oliblariga sportning ham individual, ham jamoa turlari bo'yicha diplomlar bilan birga ushbu Nizomning 5-bandiga muvofiq belgilangan miqdorda pul mukofotlari topshiriladi.

(12-bandning birinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 9-sentabrdagi 562-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 09.09.2021-y., 09/21/562/0857-son)

G'oliblarga pul mukofotlari, tashkilotchilar ta'sis etgan sovrinlardan qat'i nazar, topshiriladi.

Oldingi tahrirga qarang.

13. Tanlovlar va musobaqalar g'oliblarini moddiy rag'batlantirish uchun mablag'lar O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi, Madaniyat vazirligi, Jismoniy tarbiya va sport vazirligi hamda Badiiy akademiya smetalarida nazarda tutiladi.

(13-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 9-sentabrdagi 562-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 09.09.2021-y., 09/21/562/0857-son)

Oldingi tahrirga qarang.

14. G'oliblarga diplomlar, maxsus guvohnomalar va pul mukofotlari O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi, Madaniyat vazirligi, Jismoniy tarbiya va sport vazirligi hamda Badiiy akademiya tomonidan tantanali vaziyatda topshiriladi.

(14-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 21-avgustdagi 499-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 22.08.2020-y., 09/20/499/1199-son)

Oldingi tahrirga qarang.

15. Xalqaro va respublika tanlovlari va musobaqalari g'oliblari oliy ta'lim muassasasiga qabul qilingandan keyin tuziladigan guruhlar tarkibida xorijiy mamlakatlar ta'lim muassasalariga yuborish uchun ustunlikka ega bo'lish huquqini oladilar.

(15-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 9-sentabrdagi 562-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 09.09.2021-y., 09/21/562/0857-son)

Oldingi tahrirga qarang.

16. Maxsus guvohnomalar ro'yxatdan o'tkazilgan tartib raqamiga ega bo'lib, qat'iy hisobot hujjatlari toifasiga kiradi, imtiyozga ega bo'lgan abituriyentlar toifasi hamda ularning reyestri Vazirlar Mahkamasining "Oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirish uchun hujjatlarni qabul qilish bo'yicha davlat xizmatlarini ko'rsatishning ma'muriy reglamentini tasdiqlash to'g'risida" 2019-yil 7-iyundagi 468-son qarorida nazarda tutilgan imtiyozlarni berish uchun mas'ul vakolatli organlar tomonidan shakllantirib boriladi.

(16-bandning birinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 21-avgustdagi 499-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 22.08.2020-y., 09/20/499/1199-son)

G'olibning surati bo'lmagan guvohnoma haqiqiy hisoblanmaydi.

Maxsus guvohnoma yo'qolganda yoki yaroqsizlanib qolganda dublikat berilmaydi.

Oldingi tahrirga qarang.

17. G'oliblarning oliy ta'lim muassasasiga o'qishga imtiyozli kirish masalalari bo'yicha ariza va shikoyatlari qonunchilikda belgilangan tartibda ko'rib chiqiladi.

(17-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 4-apreldagi 153-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 05.04.2022-y., 09/22/153/0266-son)

Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 13-oktabrdagi 226-son qaroriga
6-ILOVA

O'zbekiston Respublikasi Hukumatining o'z kuchini yo'qotgan qarorlari ro'yxati

1. Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston o‘quvchi yoshlarini taqdirlash va moddiy rag‘batlantirish to‘g‘risida” 1993-yil 25-martdagi 157-son **qarori**.

2. Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida” 2005-yil 6-iyuldagi 156-son qaroriga ilovaning **3-bandi** (O‘zbekiston Respublikasi QT, 2005-y., 6-7-son, 35-modda).

3. Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirishlar kiritish, shuningdek ba‘zilarini o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblash to‘g‘risida (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Fan va texnologiyalar rivojlanishini muvofiqlashtirish va boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2006-yil 7-avgustdagi PQ-436-son qarori) 2006-yil 2-oktabrdagi 207-son qaroriga 1-ilovaning **1-bandi** (O‘zbekiston Respublikasi QT, 2006-y., 10-son, 73-modda).

(O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2008-y., 42-son, 422-modda; 2016-y., 17-son, 176-modda; 2016-y., 43-son, 500-modda; 2017-y., 19-son, 345-modda, 26-son, 586-modda; Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 07.11.2017-y., 09/17/892/0217-son, 09.11.2017-y., 09/17/898/0234-son, 09.07.2018-y., 09/18/508/1477-son; 06.03.2019-y., 09/19/190/2707-son, 17.08.2019-y., 09/19/684/3601-son; 22.08.2020-y., 09/20/499/1199-son, 07.11.2020-y., 09/20/691/1474-son; Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 09.09.2021-y., 09/21/562/0857-son, 04.11.2021-y., 09/21/674/1029-son; 12.01.2022-y., 09/22/20/0014-son, 05.04.2022-y., 09/22/153/0266-son)